

FANLAR TIZIMIDA IJTIMOY – GUMANITAR FANLARNING AHAMIYATI

Davronov Ziyot Davronovich.*F.f.d., professor.***Salimov Baxriddin Lutfullaevich.***TDTr.U dotsenti.***Ma'murov Boburmirzo Akramjon o'g'li.***TDTr.U talabasi.*

Annotatsiya: *Ijtimoiy – gumanitar fanlar mohiyatini yanada chuqurroq onglash har bir mutaxassisning muhim burchidir. Bu fanlarning beqiyos ijobiy xususiyatlaridan mohirona foydalanish lozim. «Falsafa», «Dinshunoslik» fanlari o'quvchi - tinglovchi, talaba faoliyatini faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham qamrab oladi.*

Kalit so'zlar: *Fanlar tizimi, ijtimoiy-gumanitar fanlar, tarix, dinshunoslik, falsafa.*

Abstract: *Deeper understanding of the essence of social and humanitarian sciences is an important duty of every specialist. It is necessary to skillfully use the incomparably positive features of these sciences. The subjects "Philosophy", "Religion" cover not only theoretical, but also practical aspects of student activity.*

Key words: *System of sciences, social and humanitarian sciences, history, religious studies, philosophy.*

Fanlar tizimi yildan- yilga, asrdan- asrga o'zgarib takomillashib borayotir. Fanlarning klassifikatsiyasini uch guruhga bo'lib o'rganishga chorlaydilar. Birinchi, ijtimoiy-gumanitar fanlar; ikkinchi: tabiiy fanlar; uchinchi: mexanika fanlar;

Bu fanlar o'rtasida falsafa o'zining turli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar ko'proq ijtimoiy hayotni o'zida aks ettirsa, tabiiy fanlar tabiatga xos xususiyatlarni tushuntiradi. Mexanika fanlari esa ishlab chiqarish vositalarining mohiyati va mazmunini ifodalaydi.

Ijtimoiy fanlar kadrlar tayyorlashning maqsadlarini, qonunlari, huquqiy me'yorlari, ilmiy - uslubiy, iqtisodiy shart - sharoitlari moddiy texnika ba'zalarini nazariyasini yaratishga ko'maklashadi. Yangi pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga yangi o'quv standartlarini yaratishga, dasturlarni zamon talablari darajasiga ko'tarishga, umum ta'lim sohasini sifat jihatidan yangilashga, uzluksiz ta'lim - tarbiyani ta'minlash va tadbirlariga mazkur sohada ishlovchilarni ijtimoiy himoyalash yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishga e'tiborini qaratadi. Binobarin, yetishtirilayotgan kadrlar faoliyatida ijtimoiy – gumanitar fanlarini o'rni qanday bo'layotir va qanday bo'lmog'i lozim? Ijtimoiy- gumanitar fanlari shaxs shakllanishining ibtidosimi?

Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda ijtimoiy – gumanitar fanlarni qay darajada o'qitilishiga ham bog'liqdir. Ma'lumki, ijtimoiy – gumanitar fanlariga tarix, tilshunoslik, falsafa, milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, ma'naviyat asoslari,

O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, siyosatshunoslik, dinshunoslik, pedagogika – psixologiya va boshqa bir qancha fanlar kiradi. Bu fanlar tarbiya sohalarini nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oladi. Shu sababali ham oliygohlarda ta’lim olayotgan bo‘lajak kadrlar bu fanlarni chetlab o‘taolmaydi.

Ijtimoiy – gumanitar fanlar mohiyatini yanada chuqurroq o‘nglash har bir mutaxassisning muhim burchidir. Bu fanlarning beqiyos ijobiy xususiyatlaridan mohirona foydalanish lozim. «Falsafa», «Dinshunoslik» fanlari o‘quvchi - tinglovchi, talaba faoliyatini faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham qamrab oladi. Dunyoqarashini kengaytiradi. Bu fanlar ko‘proq insonni turmush tarzidagi voqealardan kelib chiqadi va uni kundalik hayotda aks ettiradi.

Masalan, tabiiy fanlardan: fizika, ximiya, matematika, informatika, geografiya, biologiya, zoologiyalarda istagancha tajribali ashyo topish mumkin. Hayot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, falsafa, siyosatshunoslik, ma’naviyat asoslari, iqtisod, tarix fanlari muammolarini aksariyat holda tajribada ko‘rsatib bo‘lmaydi. Boz ustiga, ishlab chiqilgan ko‘rgazmali ashyolarni o‘zi yetishmaydi. Ma’lumki, bu fanlarni eslab qolish ham aniq fanlarga nisbatan mushkul. Shu o‘rinda aynan falsafa fanini oladigan bo‘lsak, ijtimoiy – gumanitar fanlarni matematikasi deb, bejiz aytilmasa kerak.

Ijtimoiy – gumanitar fanlari professor – o‘qituvchilari ijtimoiy sohalarni ko‘proq tushunadigan mutaxassislardir. Shu sababli ular hayotni faqat nazariy bilimlar asosida tushuntirmasdan, jamoat tashkilotlari bilan ham bog‘lanib o‘z faoliyatlarini yuritsalar, u yoki bu sohani singdirish yengilroq o‘tadi. Respublikadagi yoshlarni, umuman aholini yuksak ma’naviyatga chorlaydigan tashkilotlar yetarlicha tashkil etilgan va ularni faoliyati uchun sharoitlar ham yaratilgan.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki mutaxassis kadrlarni siyosiy bilimdonlikka chorlash ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Demak, bo‘lajak kadrlarni nafaqat yuksak ma’naviyatligiga balki, siyosiy jihatdan yetukligiga e’tiborni qaratish yanada muhimroq. Hayotda ko‘rib turibmizki, siyosiy mushohada yurgiza olmaydigan kishilar, yoshlar nopok ishlarga qo‘l urmoqdalar. Turli ekstremistik oqimlar faoliyatiga ergashmoqdalar. Natijada o‘z ota-onasiga, jamoasiga, millati va Vataniga tosh otadigan bo‘lib chiqayotirlar. Bularni paydo bo‘lishida ijtimoiy – gumanitar fanlarga ikkinchi darajali deb qarash natijalari emasmikin? Yana shuni aytish kerakki, talabaning siyosiy saviyasini faqat test savollari hal etmaydi. Buning uchun professor – o‘qituvchiga imkoniyat yaratilishi lozim. Ko‘proq o‘zaro savol – javob jarayonlariga diqqatni tortish kerak. Shundagina talaba va tinglovchini dunyoqarashini to‘laroq anglash mumkin. Bu o‘rinda ba’zi mutasadilar tekshiruv jarayonida faqat test baholari qo‘yilsin, deb talab qilishlari bizning fikrimizcha, yaxshi natija bermayotir.

Fanlarni rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan va asar yozgan O‘rta Osiyolik olimlar oz emas. To‘g‘ri, hali ham diyorimiz xududida ijod qilgan minglab allomalarimizning falsafiy asarlari zamonaviy tilimizga tarjima qilinmasdan kutubxonalarda muntazirlik bilan tarjimonlarni kutib yotibdi. Ammo hozir ham foydalanish uchun zarur bo‘lgan tarjimalar kam emas. Jumladan, Muso al Xorazmiy, Mahmud az - Zamaxshariy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Mansur Motrudiy, Farg‘oniy, Umar Xayyom, Abu

Iso Muhammad at – Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Burhoniddin al – Marg‘inoniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Nizomiddin Shomiy, Nizom ul- mulk, Mirzo Ulug‘bek, Ali Yazdiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat, Mohlaroyim - Nodira, Jahon otin -Uvaysiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa yuzlab mutafakkirlarning o‘zbek tilidagi mavjud asarlarining borligi fikrimizning dalilidir.

Ijtimoiy – gumanitar sohalarini aks ettiradigan falsafiy ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv filmlari mutassadi markazlar tomonidan yaratilayotir. Bu kelajakda falsafiy bilimlarnirivojiga o‘z hissasini qo‘shadi albatta.

REFERENCES:

1. Зиёд Давронов (2022). БИОЭТИКАНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ҲАҚИДА. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (1), 82-84.
2. Давронов, З. Д. (1990). Возможность и действительность. Фан.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) САНОАТ, ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ТАБИАТ, ЖАМИЯТ ВА ИНСОНИЯТ ҲАЁТИ БИЛАН ДИАЛЕКТИК АЛОҚАДОРЛИГИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 351-358.
4. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 359-365.
5. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
6. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Бирдамлик ва ҳамжихатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.